



EKSPORT RIVOJLANISHINING MAKROIQTISODIY BARQARORLIKKA TA'SIRI

Sobirova Muxlisa

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi
"O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning
ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi
ORCID: 0009-0003-6846-774X
sobirovamuxlisa80@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada eksport va makroiqtisodiy barqarorlik tushunchasi, ularning bir-biriga o'zaro bog'liqligi muhokama qilinadi. Eksport salohiyatini oshirishda unga ta'sir etuvchi omillar hamda uning mamlakat milliy iqtisodiyotida tutgan o'rni, eksport samaradorligini oshirishning amaliy va nazariy jihatlarini ko'rib chiqilgan. Maqolada iqtisodiyotda eksport tizimining rivojlanishi bilan bog'liq nazariy yondashuvlar o'rganilgan.

Kalit so'zlar: eksport, import, makroiqtisodiy barqarorlik, reeksport, reimport, eksport bojlari, import bojlari, valyuta, raqobat, xalqaro savdo, tashqi savdo siyosati.

ВЛИЯНИЕ РАЗВИТИЯ ЭКСПОРТА НА МАКРОЭКОНОМИЧЕСКУЮ СТАБИЛЬНОСТЬ

Собирова Мухлиса

*Научно-исследовательский центр
«Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана»
при Ташкентском государственном экономическом университете*

Аннотация. В данной научной статье рассматриваются концепции экспорта и макроэкономической стабильности, а также их взаимосвязь. Рассмотрены факторы, влияющие на рост экспортного потенциала, его роль в национальной экономике страны, практические и теоретические аспекты повышения эффективности экспорта. В статье исследуются теоретические подходы, связанные с развитием экспортной системы экономики.

Ключевые слова: экспорт, импорт, макроэкономическая стабильность, реэкспорт, реимпорт, экспортные пошлины, импортные пошлины, валюта, конкуренция, международная торговля, внешнеторговая политика.

THE IMPACT OF EXPORT DEVELOPMENT ON MACROECONOMIC STABILITY

Sobirova Mukhlisa

*Scientific Research Center "Scientific Foundations and Problems
of the Development of the Economy of Uzbekistan"
under Tashkent State University of Economics*

Abstract. This scientific article discusses the concept of export and macroeconomic stability, their interrelationship. The factors influencing the increase in export potential and its role in the national economy of the country, practical and theoretical aspects of increasing export efficiency are considered. The article studies theoretical approaches related to the development of the export system in the economy.

Keywords: export, import, macroeconomic stability, re-export, re-import, export duties, import duties, currency, competition, international trade, foreign trade policy.

Kirish.

Global iqtisodiy integratsiya va raqobat muhitining kuchayib borayotgan hozirgi sharoitida har bir mamlakatning iqtisodiy barqarorlikka erishishida tashqi savdo, xususan, eksport salohiyatini oshirish muhim strategik omilga aylanmoqda. Iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri sifatida eksport mamlakat valyuta tushumlarini oshirish, sanoat tarmoqlarining modernizatsiyasi, ishlab chiqarish samaradorligini ko'paytirish va zamonaviy texnologiyalarni jalb etish orqali iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Ekport faoliyatining samaradorligi nafaqat ichki iqtisodiy siyosatga, balki xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi o'zgarishlar, tarif va no-tarif to'siqlar, global bozor tendensiyalari va xorijiy sheriklar bilan hamkorlik darajasiga ham bevosita bog'liq. Shu boisdan, eksportni rivojlantirishning nazariy asoslarini chuqur tahlil qilish, ushbu jarayonni iqtisodiy barqarorlik bilan uzviy bog'lab o'rganish bugungi kun iqtisodchilari va siyosatchilari uchun dolzarb vazifalardan biridir. Mazkur maqolada eksportni rivojlantirishning nazariy asoslari, uning iqtisodiy barqarorlikka ta'siri, turli iqtisodiy maktablar nuqtai nazaridan yondashuvlar va zamonaviy amaliy tajribalar asosida tahlil qilinadi.

Adabiyotlar sharhi.

Milliy iqtisodiyotda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va eksportni rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari bir qator ilmiy tadqiqotlarning obyekti sifatida tadqiq etib kelinmoqda. Eksport faoliyatining nazariy asoslari va uning iqtisodiy barqarorlikka ta'siri bo'yicha iqtisodiy adabiyotlarda turli yondashuvlar mavjud. Klasik iqtisodiy nazariyada Adam Smit va David Rikardo kabi olimlar tashqi savdoning afzalliklarini, xususan, mutlaq va nisbiy ustunlik nazariyalari orqali asoslab berganlar. Ularning ta'kidlashicha, har bir mamlakat o'zining nisbiy ustunligiga ega bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilish orqali global iqtisodiy farovonlikka hissa qo'shadi.

Merkantilizm maktabining yirik vakillari ingliz iqtisodchilari Nomas (1571-1641) va Staffordlar (1554-1612) hisoblanishgan va ularning nazariyalariga ko'ra, mamlakatning boyligi uning ixtiyorida bo'lgan oltin va kumush bilan belgilanganligi sababli tashqi savdo maktabi mamlakat milliy iqtisodiyotini mustahkamlashi uchun quyidagilarga amal qilish lozim, deb hisoblashgan:

- tashqi savdoda musbat saldoni ta'minlash – eksportning importdan katta bo'lishi mamlakatning oltin zaxirasini boshqa mamlakatlarning oltin manbalari hisobiga o'sishiga olib keladi. Bu, o'z navbatida, ichki xarajatlar, ishlab chiqarish va bandlikning oshishiga olib keladi;
- eksportni oshirish va importni kamaytirishga qaratilgan tashqi savdo siyosatini yuritish
- tariflar, kvotalar va boshqa dastaklar yordamida savdo balansining musbat savdo saldosi ta'minlash va boshqalar. (Ergashev va boshq., 2018) Keyingi bosqichda neoklassik yondashuvlar, xususan, Heckscher–Ohlin modeli, eksport tarkibida resurslar taqsimotining ahamiyatini ko'rsatib berdi. Ushbu modelga ko'ra, mamlakatlar o'zlarida nisbatan ko'proq mavjud bo'lgan resurslarga asoslangan mahsulotlarni eksport qilish orqali ixtisoslashuv va samaradorlikka erishadilar. Hill va boshqalar (2015) ta'rifi ko'ra, eksport - bu bir mamlakatda ishlab chiqarilgan va boshqa mamlakatda sotiladigan tovar yoki xizmat, eksport qiluvchilar sotuvchilar, importchilar esa xaridorlardir. Eksport global kengayish istagida bo'lgan firmalar uchun keng tarqalgan strategiyadir, lekin u tariflar, savdo qoidalari va yuqori transport xarajatlari kabi to'siqlarga duch keladi.

Stourit va boshqalar (2017) ning fikricha, eksport korxonalarining muvaffaqiyat kaliti bu ulardagi boshqaruv qobiliyatidadir. Amadeo (2020) fikricha, mamlakat importdan ko'ra ko'proq tovarlarni eksport qilsa, savdo balansida profitsit mavjud bo'ladi. Eksportga nisbatan import ko'proq qilsa, u savdo kamomadiga ega bo'ladi.

So'nggi o'n yilliklarda esa eksportni rivojlantirishda endogen o'sish modeli, portfel nazariyasi, hamda klaster va qiymat zanjiri yondashuvlari alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Masalan, M. Porterning raqobat ustunligi nazariyasida eksportni raqobatbardoshlik bilan bog'lash orqali barqaror iqtisodiy o'sishga erishish yo'nalishlari asoslab berilgan.

Savdo sharoiti yaxshilanishi eksport hajmi qisqarishi va import hajmi oshishiga olib keladi. Bu esa to'lov balansini yomonlashtiradi. (Ergashev va boshq., 2018) Xalqaro savdo tashqi savdo aylanmasi, eksport va import, savdo balansi kabi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi. (Shodmonov va boshq., 2021)

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada ilmiy abstraksiyalash, deduksiya, induksiya, monografik kuzatuv, statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Zamonaviy global iqtisodiyotda hech bir davlat to'liq o'z ehtiyojlarini ichki resurslar hisobiga ta'minlay olmaydi. Shu sababli xalqaro savdo, xususan, eksport va import milliy iqtisodiyotlar taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Eksport - bu mamlakatda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning xorijiy bozorlarga chiqarilishi bo'lsa, import - xorijdan ichki bozorga olib kiriladigan mahsulotlar va xizmatlardir. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun davlatlar turli siyosatlar, masalan, pul-kredit siyosati, fiskal siyosat (byudjet va soliq siyosati), ish o'rinlari yaratish va iqtisodiy reformalarni amalga oshiradi. Qisqa qilib aytganda, mamlakatda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning ya'ni yalpi ichki mahsulot (YaIM), yalpi milliy daromad (YaMD), sof ichki mahsulot (SIM), sof milliy daromad (SMD), shaxsiy daromad (ShD), shaxsiy tasarrufidagi daromad (ShTD), iste'mol (C) jamg'arish ko'rsatkichlarining hajmi va o'sish sur'atlari barqaror darajada ekanligidan dalolat beradi. Bu barqarorlik, inflatsiya darajasining boshqarilishi, iqtisodiy o'sishning barqaror sur'atlari va valyuta kurslarining muvozanatli holatga keltirilishi kabi omillarni o'z ichiga oladi. Davlatning tashqi iqtisodiy siyosatida eksportni kengaytirish muhim masala hisoblanadi va davlat eksport uchun mo'ljallangan ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashning turli shakllarini keng qo'llaydi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev boshchiligida 2025-yil 16-yanvar kuni investitsiyalarni keng jalb etish va eksport hajmini oshirish borasidagi ishlar natijadorligi hamda kelgusidagi asosiy vazifalar muhokamasi bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida "Investitsiya samaradorligining ko'rsatkichlaridan biri - eksport ekanligiga alohida e'tibor qaratib, erkin iqtisodiy zonalardagi korxonalar kiritgan sarmoyasiga qarab, imtiyoz olayapti. Bu tannarxni pasaytirish, eksportga chiqishga xizmat qilishi kerak" ekanligini ta'kidlab o'tdi. Shu bois endi faqat eksportga ishlaydigan erkin iqtisodiy zonalarda tashkil etilishi ta'kidlandi. Ularda xorijiy brendlar bilan yuqori qiymatli, tashqi bozorlarda talabgir mahsulotlar ishlab chiqariladi. Shulardan birinchisi Namangan viloyatida, 30 gektar maydonda to'qimachilik yo'nalishida tashkil etiladi. Bu yil eksportni 30 milliard dollardan oshirish mo'ljallanmoqda. Masalan, yurtimizda xomashyosi bo'lgan to'qimachilik, elektrotexnika kabi tarmoqlarda eksportni 2-3 karra oshirish imkoniyati borligiga ham alohida to'xtalib o'tildi. Shu bois bu ikkita drayver tarmoqni rivojlantirish, eksportga ishlayotgan korxonalarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash choralari ko'riladi. Shuningdek, tashqi bozorlardagi imkoniyatni tahlil qilib, uch yillik eksport strategiyasini ishlab chiqish choralari ko'rish zarurligi ta'kidlangan. "O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan va amalga oshirilishi davom etayotgan barcha maqsadlarga erishish va dolzarb vazifalarni bajarilishini ta'minlashda, milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini kuchaytirish va uning tarkibida qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan mahsulotlar ulushini keskin oshirish katta ahamiyatga egadir.

Jahonda global raqobatning kuchayishi va raqobatbardoshlikni oshirishda eksport salohiyatini rivojlantirishning keng qo'llanilishi sharoitida yengil sanoat, shu jumladan, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarida eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarish strategiyalarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Tashqi

bozorlarda o'z brendiga va mavqeiga ega raqobatbardosh korxonalarda eksport tizimini izchil yo'lga qo'yish bo'yicha zamonaviy ilmiy-nazariy yondashuvlarni ishlab chiqish, mamlakat eksport salohiyatini yuqori ko'rsatkichlarga ko'tarish amaliyoti va bosqichli strategiyalaridan foydalanishda innovatsion uslublarni qo'llash, xalqaro savdoda raqobatbardoshligini baholashning uslubiy asoslarini rivojlantirish, brendlarni targ'ib qilishda raqamli marketing strategiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirish, resurslar va mehnat sarfini tejash orqali sifatli va ko'p miqdordagi mahsulotlar ishlab chiqarish masalalari ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda eksport va import jahondagi deyarli barcha mamlakatlar iqtisodiyotida barqarorlikka erishishda muhim va hal qiluvchi rol o'ynashda davom etmoqda, mamlakatlar o'zlariga kerakli resurslarni olish va aholining talablarini qondirish uchun tovarlar va xizmatlar savdosi bilan shug'ullanadilar. Davlatning tashqi iqtisodiy siyosatida eksportni kengaytirish muhim masala hisoblanadi va davlat eksport uchun mo'ljallangan ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashning turli shakllarini keng qo'llaydi. 2024-yilda jahondagi eng yirik eksportchi mamlakatlar AQSh 7.3 trillion \$ dollarlik, Xitoy 2.06 trillion \$ dollarlik mahsulot va xizmatlar eksport qilgan. Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra 2024-yilning yanvar-iyul oylarida eksport hajmi 1.01 foizga kamaygani, import hajmi esa 10.1 foizga oshgani ko'rsatilgan. 2024-yilning yetti oyi davomida respublika tashqi savdo aylanmasi 36,8 milliard dollarga yetdi. Bu 2023-yil mos davridagidan 1,9 milliard dollarga (5,3 foiz) ko'p. Mazkur o'sish import hajmi keskin ortgani bilan bog'liq. Xususan, tashqi savdoda eksport ulushi 14 milliard 786 million dollar bo'lgan. O'tgan yil mos davrida bu ko'rsatkich 14 milliard 954 million dollarni tashkil etgan. Joriy yil yanvar-iyul oylarida import ulushi 22 milliard dollarga yetgan. Taqqoslash uchun, 2023-yilning shu davrida import hajmi 20 milliard dollar bo'lgan. Joriy hisobot davrida mamlakat tashqi savdosida qariyb 7,3 milliard dollarlik defitsit shakllangan. O'zbekiston tashqi savdosining yuqori ulushi Xitoy (18,6 foiz), Rossiya (18,5 foiz), Qozog'iston (6,2 foiz) va Turkiya (4,6 foiz) davlatlariga to'g'ri kelgan. Tashqi savdoda Toshkent shahrining ulushi 39,9 foiz bo'lib, 14,7 milliard dollarga yetgan. Bu respublikaning boshqa hududlariga qaraganda eng yuqori ko'rsatkich hisoblanadi. Tashqi savdodagi eng quyi ulushni esa Surxondaryo viloyati qayd etgan — 0,6 foiz (239,2 million dollar). Yetti oy davomida eksportning qariyb 25 foizi yoki 4,2 milliard dollari oltin hissasiga to'g'ri keldi. Taqqoslash uchun, 2023-yilning mos davrida 5,6 milliard dollarlik oltin sotilgan. O'z o'rnida joriy hisobda salkam 2,5 milliard dollarlik sanoat mahsulotlari, 1,1 milliard dollarlik oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar eksport qilingan. Hisobot davrida mashinalar va transport asbob-uskunalar importi eng katta ulushni tashkil etdi — 7,8 milliard dollar (35,4 foiz). Shu bilan birga, 2,7 milliard dollarlik kimyoviy vositalar, 2,5 milliard dollarlik mineral yoqilg'i, yog'lash moylari, 2 milliard dollarlik oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar import qilingan. 2024-yil yakunlariga ko'ra eksport ilk bor 27 milliard dollarga yetgan.

Xulosa va takliflar.

Umumiy xulosa sifatida shuni aytish joizki, eksport va import mamlakat milliy iqtisodiyotining muhim bo'g'inlaridan biri hisoblanib, bular o'zaro muvozanat hamda oqilona strategik yondashuv talab qiladi. eksport iqtisodiy o'sish, ish o'rinlari yaratish va balansni saqlashda muhim rol o'ynaydi. Eksport tizimini rivojlantirish orqali eksportbop mahsulotlar va xizmatlarni chet el bozorlariga olib chiqish imkonini beradi. Tashqi savdo faoliyati iqtisodiy o'sishning asosiy manbalaridan biridir, chunki u ichki ishlab chiqarishni rag'batlantiradi. Eksportdan olinadigan valyuta kirimlari mamlakatning valyuta mablag'larining barqarorligini ta'minlaydi. Bu, iqtisodiy inqirozlar vaqtida zaxiralar yaratishga yordam beradi. Eksport faoliyati orqali yangi ish joylari yaratiladi, bu esa ijtimoiy barqarorlikni saqlashda muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy farovonlik oshishi iqtisodiy barqarorlikka xizmat qiladi. Eksportni rivojlantirish uchun ichki ishlab chiqarish va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlovchi yangi dasturlar ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Adabiyotlar /Jumepamypa/References:

Amadeo, Kimberly. (2020) "3 Ways Countries Increase Exports". *The Balance*. Retrieved 21 September.

Asqarova M.T. va boshqalar (2021), *Makroiqtisodiyot: Darslik / T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi"*, – 280 b.

Ergashev E., va boshqalar (2018) *Makroiqtisodiyot: O'quv qo'llanma - T.: "Iqtisod-Moliya"*, – 352 b.

Hill, Charles W.L. (2015). *International Business: competing in the global marketplace (15th ed.)*. New York: McGraw Hill. p. 454. ISBN 978-0078112775.

imv.uz (n.d.) O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy web sayti. Available at: www.imv.uz

lex.uz (n.d.) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi rasmiy sayti. Available at: www.lex.uz

Maxmudov N., va boshqalar (2022) *Makroiqtisodiyot: Darslik: - T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi"*, – 454 b.

Shodmonov Sh., Raxmatov M. (2021) *Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik:T.: "Zamin nashr"*, 856 b.

Stouraitis, Vassilios; et al. (2017). "Entrepreneurial perceptions and bias of SME exporting opportunities for manufacturing exporters: A UK study". *Journal of Small Business and Enterprise Development*. 24 (4): 906–927. doi:10.1108/JSBED-03-2017-0095.

uzstat.uz (n.d.) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy sayti. Available at: www.uzstat.uz